

KUNLARINGIZ MUDOM O'TSIN SHOD,  
YANGI YILNI QUTLAGAN AVLOD!



# TONG yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

2009-yil  
28-dekabr  
N:52  
(66749)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Assalom,  
«Barkamol  
avlod»  
yili!

## ZALVORLI YILLAR QADRI

Aziz bolajonlar!

Bugun ulug' Vatanimiz bilan birga siz ham bir yoshga ulg'aydingiz. Mustaqil O'zbekistonimiz o'z kelajagi uchun yana bir dadil qadam qo'ydi. Yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan 2009 -yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» uzoqdagi tengdoshlaringiz, ularning ota-onalari hayotida unutilmas yil bo'lib qoldi.

O'tayotgan yil chin ma'noda qishloqlarni zamonaviy darajaga ko'tarish, ularda turmush madaniyatini yaxshilash, bolalarni yanada sog'lom va bilimli bo'lishlari uchun kurashish yo'lida asosiy maqsad davri bo'ldi. Haqiqatan ham joriy yilda qishloqlar qiyofasi tubdan yaxshilanishi uchun maxsus «Qishloq qurilish banki» tashkil etildi. Bank qishloqlarda 840 ta zamonaviy xususiy uylar bunyod etish uchun 60 milliard so'm mablag' ajratdi. Kelasi yil esa bu mablag'ga qo'shimcha ravishda yana 530 milliard so'm ajratiladi.

Respublikamizning turli hududlaridagi qishloq joylarida 42 ta alohida yer maydonlari ajratilib, bu maskanlarda eng zamonaviy turar-joylar barpo etilmoqda. Kelasi yil bahorida qurib bitiriladigan va hamma zamonaviy shart-sharoitlar muhayyo etilgan bu joylar ko'pgina qishloq bolalari uchun chinakam olamshumul voqea bo'ldi.

Davomi 2 - betda



«Paxtakor» futbol akademiyasining  
navbatdagi chempionlari

7 - bet

2010-YIL



Boshi 1-betda

Mamlakatimizda o'g'il-qizlarning zamonaviy ta'lim olish darajasini tubdan yaxshilash bo'yicha izchil tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bosqichma-bosqich umumta'lim davlat dasturining hayotga tadbir etilishi kelajak avlodning har tomonlama mukammal o'sib-ulg'ayishi uchun katta g'amxo'rlik bo'lmoqda. Ayniqsa, o'tgan yillarda 1957 ta maktabning yangidan bunyod etilishi va ta'mirlanishi, ularning eng zamonaviy o'quv anjomlari – kompyuterlar, laboratoriya uskunalar bilan jihozlanishi katta voqea bo'ldi. Endilikda oddiy qishloq bolasi o'z maktabida o'tirib, kompyuter orqali internetga ulanishi va dunyoning

egallashi, Toshkentda 42-Xalqaro Mendeleev Olimpiadasi bo'yicha o'tkazilgan nufuzli tanlovda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litsey o'quvchisi Anvarjon Maqsudxo'jayev oltin, Ravshan Mirzayev kumush medal bilan taqdirlanishi quvonchlidir.

**Yurtboshimiz tomonidan 2010-yil – «Barkamol avlod yili» deb e'lon qilinishi kelajak avlod, haqiqiy vatanparvar o'g'il-qizlar uchun qilinayotgan cheksiz g'amxo'rlikning amaldagi namunasidir. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzalarida shu xususda to'xtatilib, shunday dedilar: «Barcha ezgu niyatlarimizning**

**qatoriga ko'tarilishi uchun harakat qilayotgan jamiyat, birinchi navbatda, bugun unib-o'sib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod bo'lib hayotga kirib borishini o'zi uchun eng ulug', kerak bo'lsa, eng muqaddas maqsad, deb biladi».**

Darhaqiqat, tarixi buyuk, kelajagi porloq O'zbekistonimizning xalqi va uning kelajak avlodining hayoti yanada farovon, dunyo miqyosidagi obro'-e'tibori, mavqei, shon-shuhrati yanada yuksak bo'lishi uchun uzoqni ko'zlab, izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Uzviy ravishda 2008-yilning – «Yoshlar yili», 2010-yilning – «Barkamol avlod yili» deb e'lon qilinishi – intellektual salohiyati va ildizlari chuqur, boy merosga ega xalqimiz navqiron farzandlarining yetuk insonlar bo'lib kamol topishlari uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardir.

Sizlar ham o'qib, o'sib, ulg'ayib bir kun ana shunday ulug'vor yillarni, cheksiz g'amxo'rlikni havas bilan eslaysiz. Shu sababli, bu zalvorli yillarning, oltinga teng kunlarning qadriga yeting. Hayotingizda har bir yil o'ziga xos iz qoldirsin. Besamar o'tgan kunlar uchun afsuslanmang. O'qing, o'rganing, kasblarni egallang. Iste'dodingizni, nimalarga qodirligingizni amalda ko'rsating.

Siz Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Ulug'bek, Zamaxshariy, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdilarning avlodlarisiz.

Kirib kelayotgan 2010-yil – Yangi yil ostonasida shu fikrlar ko'nglimdan o'tdi. Ularni Sizlarga to'kib soldim. Bayram og'ushidagi farzandlarimizga sog'liq, bilim cho'qqilarini egallashlarida ulkan zafarlar tilab qolaman.

**Yil yakunlanishiga sanoqli kunlar golganda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi va xalq deputatlari viloyat, shahar, tuman kengashlariga bo'lib o'tgan saylovlarda xalqimizning eng munosib vakillari deputatlikka saylandilar. Bu saylovlarda kechagina maktab partasida o'tirgan aka-opalaringiz ham ilk bora ovoz berdilar.**

Jabbor RAZZOQOV

**MEN SAYLOVDA QATNASHDIM**

Yoshlarni e'zozlab ardoqlayotgan yurtning baxtli bolasiman.

Bizni yurt kelajagi deb atamoqdalar. Bu so'zlar, menimcha, har bir yosh avlodning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shishi tabiiy.

Men kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga o'tkaziladigan saylovda ilk bor munosib ishtirok etganimdan xursandman.

Hafiza XOLMURODOVA, talaba

**XUSH KAYFIYAT BILAN QARSHI OLAYLIK**

Yangi yil barchaga yaxshi kayfiyat ulashuvchi bayramlardan biridir. Lekin ayrim sabablarga ko'ra, bu bayramona kayfiyat o'rnini bir zunda yomon kayfiyat egallab olmoqda. Sababi, maktab o'quvchilari bayram arafasida pirotexnika vositalaridan foydalanib, o'zlariga shikast yetkazmoqdalar. Bu ishlari bilan ota-onalari, sinf rahbarlarini ancha tashvishga solyaptilar. Keling, aziz o'quvchilar, yaqinlashib kelayotgan bayramda bunday noxushliklardan uzoqroq yurib, Yangi yilni xush kayfiyat bilan kutib olaylik.

Farog'at ABDURAHMONOVA, TTESI qoshidagi akademik litseyning 1-bosqich talabasi

**HAMISHA OMON BO'LING**


Yo'lingiz tushib, Sobir Rahimov tumanidagi 133- maktabga borsangiz, albatta biror bir tadbir ustidan chiqasiz.

Yaqinda 2-«A» sinf o'quvchilari o'rtasida «Tejamli bo'ling» mavzuida ochiq dars o'tkazilgan bo'lsa, 3- sinf o'quvchilari o'rtasida «Quvnoqlar va zukkolar» sport musobaqalari bo'lib o'tdi. 4-sinf o'quvchilari ham bo'sh kelishmadi. «Vatan yagonadir, Vatan bittadir!», «Ona ulug' zot» deb nomlangan insholar tanlovi o'tkazildi. Yuqori sinf o'quvchilari orasida bo'lib o'tgan «Prezident asarlari bilimdoni» tanlovi ko'plab o'quvchilarni befarq qoldirmadi.

Ana shunday yaxshi ishlarga bosh bo'layotgan jonkuyar, mehribon ustozlarimizni – Mashkura To'raxo'jayeva, Umida G'afurova, Zuhra Jo'raboyeva, Tursunoy Muhammedovani kirib kelayotgan Yangi yil bilan muborakbod etamiz. Hamisha omon bo'ling.

Zuhra MUHSIMOVA

**ZALVORLI YILLAR**



**QADRI**

narigi chekkasidagi tengdoshi bilan muloqot qilishi mumkin.

Hozirgi kunda o'g'il-qizlar maktablarni tugatib, o'zlari tanlagan litsey va kollejlarda bemalol o'qishlari, sevimli kasblarini egallashlari mumkin. O'tgan yillarda 1 million 446 ming yoshlar bu ilm-maskanlarini tamomlab, hayotda o'z o'rinlariga ega bo'lganliklari quvonarlidir.

Davlatimiz tomonidan o'g'il-yoshlarga, ayniqsa, qishloqlardagi tengdoshlaringizga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik o'zining yorqin samarasini bermoqda. Ko'plab o'quvchilar aniq fanlar bo'yicha olimpiadalarda nafaqat respublikamizda, balki xorijiy davlatlarda ham faol qatnashib, g'oliblik shohsupasiga ko'tarilmoqdalar.

Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashgan akademik litseyning o'quvchisi, 15 yoshli Behruz Ne'matovning Italiyada bo'lib o'tgan Xalqaro san'at festivalida birinchi o'rinni

markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxt-u saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi».

Bu dono so'zlar zamirida xalqimizning kenja umidvor vakillariga katta ishonch va e'tibor yotibdi. Shu sababli, mamlakatimizdagi bir-biridan go'zal, zamonaviy ilm maskanlarida yoshlarga chuqur bilim berish, kasb-hunar egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratish, zamonga munosib yetuk mutaxassislar qilib voyaga yetkazishdek muhim vazifalar izchil amalga oshirilmoqda. Chunki yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis bu yoshlarimizdir.

**Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganlaridek: «Xalqaro hamjamiyat va taraqqiy topgan mamlakatlar**

**QORXAT**  
yoki bizni quvib yeting

Tahririyatimizga tinimsiz uchib kelayotgan xatlarni qorxatlarga o'xshataman. Bolalik paytlarim opam bilan qorxat yozib, tunda Cho'ponqul tog'amning uylariga chopganmiz. Qorxatning talabi uni qaysi xonadonga olib borib tashlasang, seni tutib olishmasalar bo'lgani. O'sha xonadon sening qo'ygan shartlaringni bajaradi. O'shanda tog'am bizni quvib yetolmagani uchun oshga tushgan edilar. Keyin borib oshxo'rlik

qilganmiz. Bugungi qorxatimni yangi yil bo'sag'asida turgan barcha ijodkor o'g'il-qizlarimizga yo'llayapman. Siz ijodning mashaqqatli yo'lni tanlabsiz.

Ijod olamiga ilk qadam qo'ygan yosh ijodkorlar o'z oldiga yuksak vazifa qo'ymog'i lozim. Har qanday so'zlar yig'indisi she'r bo'lavermaydi.

Siz kishini chuqur o'yga toldiradigan, fikrlashga undaydigan she'riyat guldastasini tuzib, bizga yuborishingiz lozim. Kimki

qorxatni qo'lga olgan zahoti meni tutib olsa, she'rlari yil davomida gazetaga berib boriladi. Va barcha tilagi ijobat bo'ladi. Bizni quvib yetolmagan ijodkorlar esa biz qo'ygan talablarni bajarishi shart.

Yangi yilda sizlarning sog'inch-u armonga, zavq-u shavqqa qorishib ketgan she'rlaringizni mushtok bo'lib kutamiz.

AXTAMQULI



# YANGI YIL

## URF-ODATLARI

Yangi yil sevimli bayramlarimizdan biri bo'lib, uning tarixi eramizdan avvalgi II asrga borib taqaladi. Bu bayram eng avval Rim Imperiyasida va Sharqda nishonlangan. IV asrga kelib, G'arbiy Yevropada tantana qilina boshlandi. Avvallari 25-dekabr kuni o'tkazilgan bayram «Quyoshning tug'ilgan kuni» deb atalgan. G'arbiy Yevropada nishonlangan Yangi yil bayrami yillar o'tishi bilan butun jahonda nishonlab kelinmoqda.




## KATTALARNING SHIRIN SOVG'ASI

HINDISTONda Yangi yil turlicha o'tkaziladi. Shimoliy Hindiston aholisi bayram kuni qizil, pushti, siyoh rang yoki oq rangdagi gullar bilan bezanadilar. Janubiy Hindistonda esa ayollar kichkintoylarga shirinliklar ulashadilar. Shu kuni bolajonlar kattalar tomonidan turli sovg'alar hamda shirin pishiriqlar bilan siylanadilar.

## YOULUPUKKI SAVATI

FINLANDIYAda barcha oila a'zolari Yangi yil dasturxonini atrofida jamuljam bo'ladilar. Bolajonlar shu kuni Youlupukki, ya'ni Qorbobodan katta savatda sovg'a kutadilar. Finlar Yangi yil kechasida o'z kelajaklarini oldindan bashorat qilishni xush ko'radilar.



## OYOQ KIYIMIDAGI SOVG'A

GRETSIYAda Yangi yil kechasidan bir kun oldin bolalar oyoq kiyimlarini pechka oldiga qo'yib qo'yadilar. Erta tongda uyg'ongan bolakaylar eng avval pechka oldidagi oyoq kiyimlari oldiga boradilar. Negaki, tongga qadar oyoq kiyim ichi sovg'alar bilan to'la bo'lishi greklarda odatga aylangan.

## TABIAT QO'YNIGA SAYOHAT

AVSTRALIYANing Sidney shahrida Yangi yil kechasi barcha shahar aholisi archa yasatadi. Sidney osmonidagi rang-barang mushaklarni 16-20 km. masofadan ham bemalol ko'rish mumkin. Bayram kechasida avstraliyaliklar tabiat qo'yniga sayohatga chiqib, bir-birlarini Yangi yil bilan qutlaydilar.



## BAXTLI TONG

ITALIYAda Yangi yilda barcha eski buyumlardan voz kechishadi. Yangi yilning birinchi tongida barcha italiyaliklar uylariga toza suv olib kiradilar. Ularning fikriga ko'ra, toza suv kirgan uyga baxt kirib keladi. Bu tong xonadon sohiblari uchun baxtli tong hisoblanadi.



## YAXSHILIKLAR KUNI

YAPONIYAda Yangi yil 1-yanvar kuni nishonlanadi. Odatga ko'ra, yaponlar Yangi yilni tabassum bilan qarshi oladilar. Ularning kulgulari kelayotgan yilda omad keltirishiga astoydil ishonadilar. Yapon aholisi Yangi yilning birinchi kechasida ibodat qilish uchun cherkovga borishadi. Qo'ng'iroqlar 108 marta bong urayotganida, eski yildagi yomonliklar ketib, Yangi yilda uning o'rniga yaxshiliklar kelishini niyat qiladilar.



## GULLAR OMAD RAMZI

FRANSIYAda Yangi yil kechasida fransuzlar o'z xonadonlarini gullar bilan bezatadilar. Bu gullar, albatta, stol ustida ham bo'lishi shart. Hattoki eshik tepasi, daraxt shoxlariga ham osiladi. Bu esa Yangi yilda omad keltirishiga ishonadilar.



## OKEANDA HAM BAYRAM

BRAZILIYAda Yangi yil kechasida braziliyaliklar an'anaga ko'ra bir xilda oppoq kiyim kiyadilar. Shu kuni Rio de Janeyro aholisi okeanga boradi. Ular o'zlarini bilan gullar, turli taqinchoqlar va oyna olib borib, bu sovg'alarni kichkina kemachalarga joylab, suvga oqizadilar. Bu ishlari bilan ular eski yilga minnatdorchilik bildirib, o'zlariga Yangi yilda yaxshiliklar yor bo'lishini tilaydilar.

## CHIROQLARDA BAYRAM NAFASI

XITOIDa Yangi yil 17-yanvar hamda 19-fevral orasida yangi oy chiqqan kunda nishonlanadi. Bayram nafasini Xitoy ko'chalarida charaqlab yongan minglab chiroqlardan sezish mumkin. Xitoy xalqi Yangi yil bayramini oila davrasida kutib oladi. Shu kuni yil davomidagi barcha ko'ngilsizliklar unutilib, oila a'zolari gina-kuduratni unutadilar. Yangi yilda yovuz ruhlar uyga kirmasligi uchun oyna va eshiklarni qog'oz bilan yelimgan qo'yadilar.




## QO'NG'IROQLAR JARANGI

BUYUK BRITANIYAda Yangi yil kunida qo'ng'iroqlar jaranglab turadi. Eski yilni kuzatish uchun qo'ng'iroq sadolari ostida uyning orqa eshigi ochib qo'yiladi. Yangi yil kirishiga bir necha daqiqa qolganida, uyga kiruvchi asosiy eshik ochilib, Yangi yil kutib olinadi.






**Qutbiddin boboga uchrashish maqsadida To'ra'qo'rg'onga bordik. Ammo tinib-tinchimas 74 yoshli otaxonni topish oson bo'lmadi. Ular ishlayotgan tuman markaziy shifoxonasiga kirib borganimizda, u kishi harbiy bo'limda xizmatdalar, deyishdi. Izlab borganimizda, u yerdan hozirgina chiqib, tuman poliklinikasiga yo'l olganlarini aytishdi. U yerdan ham topa olmadik. Hafsalamiz pir bo'lib turganida, ularning shogirdlari «Ustozni shoshilinch tez tibbiy yordam shifoxonasidan topasizlar», deyishdi. Chindan ham biz Qutbiddin boboni «reanimatsiya» bo'limida uchratdik.**



## TO'RAQO'RG'ONNING SUPER BOBOSI



### KELING BIZNING DAVRAGA

Kirib kelar Yangi yil  
Oppoq, momiq qor bilan!  
Jo'shib qo'shiq kuylaylik  
Jaranglagan tor bilan.

Turar ko'm-ko'k archamiz  
Yalt-yult etib, tovlanib.  
Kelinchakday bezanib,  
Ko'rk-chiroy, viqor bilan.

Qorqiz bilan Qorbobo –  
Davramizga marhabo!  
Ko'p-ko'p sovg'a ulashing,  
Savlat-u viqor bilan!

Keling bizni davraga  
Quvnoq, shodon bolalar!  
Kuylaylik qalbimizda  
Sho'x, jo'shqin bahor bilan!

Eshniyoz BURXONOV,  
Qashqadaryo viloyati,  
Chiroqchi tumanidagi  
34-maktab o'qituvchisi

Ko'rinishlaridan oltmish yoshlar chamasidagi barvasta, egnida oq xalati hamon yarashib turgan bu inson bilan hol-ahvol so'rashar ekanmiz, yuzlaridagi nurli tabassum bois o'zimizni Qutbiddin bobo bilan xuddi avvaldan qardonlardek his qildik. Buning sababini bilish qiyish emasdi.

Sababi, yarim asrdan ziyod tuman xalqiga beminnat xizmat qilayotgan oliy toifali jarroh –shifokor Qutbiddin Nazarov har kuni har joyda biror savob ishga ulguradi. Bugungi kunda nafaqada bo'lsalar-da, o'z bilimi va tajribasi bilan tumanda jarroh shifokorlarning ustozlari, to'ra-qo'rg'onliklarning mehribon shifokoriga aylangan.

– Men, – deydi shoshilinch tez tibbiy yordam bo'limining hamshirasi Ominaxon Ahmedova, – bilim yurtini tugallab, ishni bag'ri keng ustoz qo'lida davom ettirdim. Mana o'ttiz

yildirki, Qutbiddin aka bilan yonma-yon turib, tuman xalqiga xizmat qilyapmiz. Ayni kunlarda o'g'lim Akmaljon ham ustozga shogird.

Qutbiddin boboning 7 nafar farzandlari el xizmatida. Nabiralari bobo atrofida parvona.

– Men 3-maktabning 5-sinf o'quvchisiman. O'qishni yaxshi ko'raman. Bo'sh vaqtlarimda sport bilan shug'ullanaman. Sportning karate turi menga yoqadi. Opam Gulhayo ham sportni sevadi. Shuning uchun u sport kollejida tahsil olmoqda. Sportni sevishimizga ko'proq buvajonim sababchi bo'lsalar kerak, deb o'ylayman. Sababi, ular sog'liqni birinchi o'ringa

qo'yadilar. Kelgusida zo'r sportchi bo'lmasak-da, ammo sport bilan do'stlashishimizni juda xohlaydilar, – deydi Tohirjon Qutbiddinov.

El koriga yarash, atrof-dagilar olqishiga muyassar bo'lish har kimga ham nasib etavermaydigan ulug' mukofotdir. Qutbiddin aka bilan tanishish jarayonida biz shu narsaga amin bo'ldikki, serg'ayrat, tinib-tinchimas shifokor bobo xuddi ertaklardagi super qahramonning o'zginasi ekan...

Kirib kelayotgan 2010-yil ham barchamizga shifokor bobomiz kabi unumli va mazmunli yashash, ishlash ishtiyoqini bersin.

FERUZA VA  
MA'MURA



### So'z o'yini

## QOBIL O'LOQPNI IDIRIB OLDI

Qahraton qish. Qobil qo'loqni qidirib qoldi.

«Qani qo'loqim»lab Qosimni qistadi. Qosim qo'loqni qayergadir qo'yib qo'ygandi. Qobil qordan qorbobo qilmoqchi edi, qilolmadi. Qo'li qattiq qotib qoldi.

Qobil qordan Qorbobo qilolmagach, qahrilanib Qosimni qorbo'ron qildi. Qosim Qobilga qaramay, qirlarga qochib qoldi. Qobil Qosimni quvlay-quvlay, qorbo'ron qilaverdi. Qisqasi, Qobil Qosimni qorbo'ron qilishni qo'yib, Qorboboni qoyillatishdi. Qorboboning qarshisiga Qorqizni qo'yib qo'yishdi. Qobil Qosimga qarab qoldi-da, Qorqizning qo'liga qo'loqni qo'ndirib qo'ydi. Qosim qulog'ini qashlab, Qorqizning qo'lidagi qo'loqni qaygadir qo'ydi. Qaysidir qoyada qarq'alar qag'illab qolishdi. Qobil, Qosim qishdan-u qorlardan quvonishdi.

Nargiza YUNUSOVA,


O'zMU qoshidagi S.Rahimov akademik  
litseyining 106-guruh o'quvchisi

### GULBAHOR QORQIZBO'LDI

– Singlim Gulbahor juda yaxshi qiz. U Yangi yilda Qorqiz bo'lishga tayyorgarlik ko'ryapti. Qalay, u Qorqizga o'xshadimi? – deydi xursand bo'lib uning akasi Abdulloh.



Dostonjon Saidov Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumani tog'-u qirliklar makoni bo'lgan Ingichka qo'rg'onidan. Ayni vaqtda Alisher Navoiy nomli filologiya va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 7-sinfida tahsil olmoqda.



## ORZULAR OG'USHIDA

manzaraga qarab to'ymas ekan.

– Hammayoq ko'm-ko'k, toza havo, qaynar buloq yonida yotib, mazza qilib «Guliverning sayohatlari», «Shum bola», «Champa otli ilon» kabi kitoblarni o'qirdim, – deydi u jilmayib. Filologiya va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab-internatda ustozlari Roziya Hotamovaning qunt bilan bilim berishi, ularni o'z farzandidek ardoq-

lashi haqida to'liqlanib gapiradi.

– Kelgusida yetuk tarjimon bo'lishni orzulab ulg'ayayotgan o'spiring orzularing hamisha ijobat bo'lsin, degim keladi.

Shahlo IMOMOVA,  
Alisher Navoiy nomli  
filologiya va san'atga  
ixtisoslashtirilgan  
maktab-internat  
o'quvchisi



## BOLALIK HAM BAYRAMDIR

Bolalik bayram, deysizmi? Shunday, bu beg'ubor va toza olamning haqiqatan ham har bir kuni, har bir daqiqasi chinakamiga bayramdir.

- Bugun a'lo baho oldim.
- Yasha, o'g'lim!

Otangizning maqtovidan quvonchingiz ko'kka yetadi. Bu ham bayram emasmi?

– O'g'lim, ustozingiz Sizni aqlli bola deb maqtadilar. Yashang, meni juda xursand qildingiz. Yangi yilda bundan ham yaxshiroq bo'lishga harakat qiling! Siz yana minnatdor bo'lasiz. Siz buni oddiy hol demang. Demak, har bir quvongan kuningiz – bayram, chinakamiga bayram!

Biz 2009-yil davomida «Oz-oz o'rganib, dono bo'lur», rukni ostida Sizga yordam tariqasida maslahatlar berdik, donolarning o'gitlaridan bahramand etdik.

Shuni yaxshi bilingki, inson o'zini tarbiyalab bormas ekan, baxt-saodatga erisholmaydi. Yangi yil ostonasida ota-onangiz, do'stlaringiz bilan yaxshi niyat qiling, men ham ulug' bobolardek insoniyatga xizmat qilaman, deya oppoq orzularga qo'l bering va shu asosda reja tuzing, ya'ni yil davomida bajaradigan yumushlaringizning aniq bo'lishi har jihatdan muhimdir.

## HAYOT DALILI

O'zbek adabiyotining yirik vakili Oybek bobongiz yoshlikdan o'z yo'lini aniq tanlab olgan. Uning «Bolalik xotiralari» kitobidagi quyidagi parchalariga e'tibor bering.

- Men Fuzuliyning go'zal she'rlarini qayta-qayta berilib o'qiyman.
- Chirog'im, – deydi yumshoq tovush bilan domlam, – oldingga ol bularni, picha sabog'ingni o'rgat, – kichinalardan bir necha shogirdlarni ko'rsatadi.
- ...Ahmad o'rnidan chaqqon turadi-da, tokchadan bir qalin kitobni avaylab oladi.

– Buni qara! – deydi menga uzatib.

Qiziqib varaqlayman.

– Qayerdan olding?

– ... Pul yig'ib-yig'ib oldim.

Oybek bolaligini kitob mehri bilan bayramga aylantirdi, o'sha mehr o'ziga mukofot bo'lib qaytdi. Darvoqe, qaysi ulug' insonning hayoti yo'liga boqmang, ularning kitob bilan oshno bo'lib, yaxshilik yo'lidan borganini ko'rasiz.

**Aziz o'quvchi! 2010-yil Sizga bir olam yaxshiliklar bilan peshvoz chiqmoqda. Bolalik damlaringiz doimo bayramlardan iborat bo'lsin, biz Sizlarning yaxshi ishlaringizni ko'rib, doimo quvonib yuraylik!**




Tursunboy Adashboyev  
Hech qachon adashmaydi,  
Qorbobo bo'lib qolsa,  
Qorqizni talashmaydi.




Bolalikdan bolalarga quloq soldim,  
Ikkisi kam sakson yoshga yetib oldim.  
«Qasoskorning oltin boshi» sandig'imda  
Otlarga «Sariq devni minib» bordim.

Bolalarning sevimli ijodkorlariga

## YANGI YIL HAZILLARI



Dunyo asli o'tkinchidir,  
Anvar aka,  
Bir lahzada yetib keldi  
Yanyar, aka!



Jo'ra Fozil qalbiga cho'g' solib ketdi,  
«Baxt yulduzi»n Buxoroga olib ketdi.



Ozod aka Turg'unov gazeta va jurnallarni tarqatish bo'limini boshqaradilar. Shu sohada 35 yildan biyon samarali mehnat qilib kelmoqdalar.

Ra'no opa Muhammedjonova har bir mushtariyga gazeta va jurnallar uzluksiz yetib borishiga mas'ul.

Gazetamiz chop etiladigan sexining texnologiyasi Husan aka Muhammedov «Tong yulduzi» gazetasi tez va sifatli chop etish uchun tahririyatdagi-lardan kam qayg'urmaydilar.

Yil yakunida sevimli nashringizda xizmat qilayotgan aka-opalaringizning kundalik yumushlari haqida qisqacha ma'lumot berishni niyat qildik. Demak, eski yilning so'nggi haftasida sevimli gazetangiz «Tong yulduzi» olamiga sayohat qilamiz. Biz bilan bo'ling.

Bizda ish kuni aynan shunday boshlanadi. Barcha xodimlar dushanba kuni ertalab Bosh muharrirning xonasiga yig'ilamiz va gazetamizning yangi sonini ko'rib chiqamiz. Xatosi bo'lmasa, muharrirning maqtovaridan bir chimdim-bir chimdim bahramand bo'lamiz. Agar xato o'tib ketgan bo'lsa... Keling, sizlarni chalg'itmay. Endi navbatdagi sonning rejasini tuzishga kirishamiz. Har bir bo'lim sandig'ida tayyor turgan eng yaxshi hikoya, she'r, maqola, nima bo'lsa, o'rta tashlanadi. Bosh muharrir bilan birgalikda muharrir muovini Feruza Jalilova, mas'ul kotib Feruza Adilova eng sara, sizlarga quvonch bag'ishlaydiganlarini ajratib olishadi. Keyin ularni mazmun-mohiyatiga qarab sahifalarga bo'lishadi. «Iye, oson ekan-ku», deb o'ylarsiz. Shoshmang! Muharrir har bir xodimga bugungi kun nafasini aks ettirgan, o'quvchilarda iliq taassurot uyg'otuvchi, turli mavzudagi maqolalarni tayyorlab, gazeta salmog'ini ko'tarishni tayinlaydi.

Ma'mura Madrahimova, Axtamqul Karim, Yusuf Abdullayev, Gulyuz Orifjonova maqola,

xabar va lavhalar tayyorlab kelish uchun jo'nab ketishadi.

Xatlar bo'limi xodimlari Zuhra Muhsimova va Zubayda Mamatqulova sizlardan kelayotgan dasta-dasta xatlarni diqqat bilan o'qib, har biriga javob yozishga kirishadilar. «Qizlar akademiya»sining boshlig'i Manzura Ubaydullayeva ham bor bisotini o'rta tashlaydi. Muharrir butun yurtimizga o'rnak bo'lishga arzigulik tengdosh dugonalaringiz haqidagi maqolalarni tanlab olgach, «Mana, bu boshqa gap», deydi. Hammamiz yengil tortamiz. Shundan so'ng, rassom Feruz Matyoqubov sahifalardagi maqolalarga moslab rasmlar chizadi. Dizaynerlar Fazliddin Shoyodgorov, Olovuddin Oripov har bir sahifani chiroyli qilib bezatishadi. Tajribali musahhah Nargiza Abdullayeva birorta ham imlo xato o'tib ketmasligi uchun gazetani qayta-qayta o'qib chiqadi.

Nihoyat, navbatdagi son ham nashrga tayyor bo'ladi. Undan keyingi ishlarni esa «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasidagi aka-opalaringiz davom ettirib, nihoyasiga yetkazadilar.

Aziz o'quvchi! Qo'lingizda gazetamizning yangi soni, unga bee'tibor bo'lmang. Uni bu darajaga yetishi uchun juda ko'p aka-opalaringiz jon kuydirishadi. Agar sizda ham shu ijodkorlar qatorida bo'lib mehnat qilish niyatingiz bo'lsa, astoydil harakat qiling.

Bu yo'lda sizga omad tilaymiz.

O'z muxbirimiz





2009 *Tong yulduzi*  
28-dekabr

**Kumush qo'ng'iroqchalar ham jaranglab, har birimizga baxt tiladilar**



## USTOZ KO'ZIDAGI MEHR

Maktabim ostonasiga qadam qo'yar ekanman, nigohim birinchi ustozim Sabohat opa Zoitovaga tushdi. Beixtiyor bundan 12 yil avvalgi shirin voqealar xayolimga keldi. Ustozim o'sha paytda yosh, shaddod, bilimga chanqoq edilar. Bizga o'qishni, yozishni, hisoblashni, qolaversa, odob va axloqni o'rgatganlari birma-bir xotiralarni uyg'ota boshladi. Hozirda yoshlari ancha ulg'aygan, ammo so'zlarida o'sha shirinsuxanlik, ko'zlarida esa o'sha mehr saqlanib qolgan. Yillar o'tib, men ham ustozim kasblarini tanladim. Ularga bo'lgan hurmatim bois, kelajakda ustoz izlaridan borib, shogirdlarimga bilim bilan birga, mehrimni ham qo'shib berishni niyat qildim. Yangi yil arafasida ustozimni bayram bilan qutlayman, ularga barcha yaxshi tilaklarni tilayman.

*Shahnoza G'AYRATOVA,*  
poytaxtdagi 45-maktabning  
«Kamolot» tashkiloti raisi



# KUMUSH



## QO'NG'IROQCHALAR

Bir oydirki, ustaxonada bolalar uchun kumush qo'ng'iroqchalar yasalyapti. Yangi yilga bor-yo'g'i bir kun qoldi. Buyurtmachilar shunchalik ko'pki, ustaning qo'li-qo'lga tegmaydi. Ayrim ota-onalar ko'proq buyurtmalar berardilar, shuning uchun bundan besh-olti kun ilgari qo'ng'iroqchalar sonini cheklab qo'yishdi. Vaqt tig'iz, hammasiga ulgurib bo'lmadi.


Usta ochiq ko'ngil, bolalarni jon-u dilidan yaxshi ko'rardi. Qaysidir bolaning uyidagi archaga qo'ng'iroqlar yetmay qolishini istamasdi. Bu qo'ng'iroqchalarni yosh bolalar emas, hatto katta odamlar ham yaxshi ko'rardilar. Usta odati bo'yicha Yangi yilga faqatgina bir oy qolganda ishga kirishardi. Sababi, Yangi yil ruhini sezgandagina bu ruhiyat qo'ng'iroqchalar jismiga jo bo'larmish.

Usta bugun ham buyurtmadan tashqari bir dona kumush qo'ng'iroqcha yasadi. Nazarida, bu bugungilarining

hammasidan chiroyliroq chiqdi. Ertaga saharda o'ttiz birinchisini yasashi kerak, chunki sovg'a egasiga topshiriladi.

Bundan o'ttiz kun avval ustaxona tashqarisiga kumush qo'ng'iroqchalar ilindi. Bu Yangi yilga tayyorgarlik boshlanganini bildirardi.

Har doim bir bola ustaxona yonidan suv tashirdi. Usta uni har kuni ko'rardi, biroq ko'zlarida quvonch ko'rmagandi. O'sha kuni oftobda yaltirayotgan kumush qo'ng'iroqchalarni ko'rib, xursandchiligidan ko'zlaridan uchqun sachradi. Qo'lidagi suv idishini yerga qo'yib, ustaxona devorlariga tikilib qoldi. U Yangi yilni, o'rtoqlarinkida ko'rgan shunday qo'ng'iroqchalarni juda yaxshi ko'rardi. Bola suvga kelganini ham unutib, ustaxona tashqarisiga ilingan qo'ng'iroqchalarni zavq bilan tomosha qilardi. Bolada shunday intiqlik bor edi-ki, hatto



*Maktabga ildam oshiqayotgan bolaning shirin orzusi bugun albatta «5» baho olishdir. Demak, boladagi ilmga ishtiyoq naqadar kuchli!*

## ILM UMMONDAGI JAVOHIRLAR

Sobir Rahimov tumanidagi 146-maktabda kundalik daftarlarini besh baholarga to'ldirib kelayotgan har bir o'g'il-qizning baxtiyorligi cheksiz.

Yangi yilning shukuhli onlarida maktabda yakuniga yetgan «Boshlang'ich ta'lim fan oyli» mazmunli tashkil etildi. Boshlang'ich sinflar o'rtasida o'tkazilgan fan olimpiadasida barcha o'quvchilar faol qatnashdilar. Shuningdek, 4-sinfning a'lochi o'quvchilaridan Pahlavon Rahimov, Farangiz Yusupova, Otobek Akbarov kabi g'oliblar maktabdan tuman bosqichi tomon yo'l oldilar.

ZUBAYDA

ustaxona devorlariga qo'l tekkizgisi kelardi. Odob saqlabmi yoki cho'chibmi, bu ishdan o'zini qaytarardi.

Usta bolani har kuni kuzatar va kech bo'lganda bor mehrini qo'shib unga bittadan kumush qo'ng'iroqcha yasab qo'yardi. O'ttiz kun ichida bolaning intiqligi qolmadi, ustaning esa sabri tugamadi. Usta o'ttiz birinchi kuni o'ttiz birinchisini yasadi-yu, bolani kutdi. Bola odatdagiday ustaxonaga qarab kelar ekan, bugun usta uning yo'lga peshvoz chiqdi. Axir shu bolachalik uning mehnatiga, mehriq intiq kimsa bormi? Shu bolachalik uning qo'llari yaratgan narsani kim aziz qila oladi?

Atagan sovg'asini bolaga berib, kelayotgan Yangi yil bilan tabrikladi. Bola hayron, usta amaki uni tanimasdi-ku? Yo onasi aytdimikan? Yo'q, onasi kasalku, zo'rg'a hovliga kirib chiqadi. O'zlari qo'shnilarning ko'magida yashayapti. Kuni kecha onasi ikkalasi har yilgi qo'yadigan yasama archani xonaning o'rtasiga o'rnatdilar. Qo'llaridan kelgancha qog'ozdan har xil shakllar yasab, archani bezatgandilar. Bola shunga ham xursand edi, uylarida yangilik oz bo'lsa-da, xursandchilik bo'ldi-ku. Ayniqsa, xasta onasining ko'zlarida ilg'ar-ilm'amas sevinch ko'rindi. Uning bir emas, ikki emas, o'ttiz bitta kumush qo'ng'iroqchasi bor. Hatto buni orzu ham qilolmasdi. Bola shu damda usta amakini dunyodagi eng yaqin odamday his qildi. Faqatgina sovg'a uchun emas, uning ko'zlaridagi mehr bolaning yuragiga kirib borgandi. Shu lahzalarda butun dunyo mehrga to'laday tuyuldi bolaga.

Bola onasining yoniga yurib emas, go'yo uchib bordi. Uyga yugurib kirgancha qo'ng'iroqchalarni archaga birin-ketin ila boshladi. Onasiga bular usta amakining sovg'asi ekanligini aytdi. Bolasining sevinchini ko'rib, onaning yuziga qizil yugurdi.

Archa ham bezalib bo'ldi. Bola archa atrofidan u yoq-buyoqqa o'tganda, qo'ng'iroqchalar «jiring-jiring» qilardi. Ona-bolaning shodligidan uyga nur yog'ildi. Soatlar Yangi yilga bong urganida, kumush qo'ng'iroqchalar ham jaranglab, shu uyga baxt tiladilar.

Barno RUSTAMOVA



## QORDA

*Chana yasab berdilar,  
Taxta qutidan dadam.  
Issiqqina ko'rpacha,  
Unga yarashdi biram.*

*Ukam bilan singlimning,  
Ichga sig'mas quvonchi.  
Men tortardim chanani,  
Bo'lib mohir haydovchi.*

*Kech tushdi. Uyga kirdik,  
Yayrab jon-u tanamiz.  
Qolib ketdi hovlida,  
Bizning taxta chanamiz.*

*Omonjon ASADOV,*  
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi  
4-maktabning 7-sinf o'quvchisi

## BARCHAMIZ MAS'ULMIZ

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, Respublikamizda Yong'in xavfsizligi oyli bo'lib o'tdi. Bu oylikda maktabingizda, mahallangizda ko'plab tadbirlar o'tkazildi, ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borildi. Bu borada siz yanada ko'proq ma'lumotlar oldingiz. Yong'in xavfsizligini ta'minlash birgina soha xodimlarining vazifasi emasligini ham tushunib yetdingiz.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda har yili 15 mingga yaqin yong'inlar sodir bo'ladi. Ushbu ko'ngilsiz hodisaning sakson foizdan ortig'i aholi turar joylari zimmasiga to'g'ri keladi.


Yangi yil arafasida «paq-puq»larga qiziquvchilar soni ko'payib borishi mumkin. O'ylaymanki, atrofingizdagi ayrim bolalarning paqildoqlarni ishlatishlariga yo'l qo'yimaysiz.

Abdurahmon ABDUHOLIQOV,  
inspektor



Qadrli sportsevar bolalar! Biz tarix sahifalariga yana bir yilni sovg'a etdik. Yil-chi? U bizga nimalarni hadya qildiynkin? Keling, yaxshisi, sport olamida 2009-yilda yuksak mukofot-u chempionlik shohsupasiga chiqqan yurtdoshlarimiz fikriga quloq solaylik:

# MAYDONLARDA CHINIQAQ POLYON



**Shohnur Shomalikov Parkent tumanida tug'ilgan. Ayni paytda Respublika Olimpiya zaxiralari kollejining belbog'li kurash bo'limida tahsil olmoqda.**

Bolaligidanoq kurashning mahoratli usullari-yu, mardlarcha jonbozligi, halol,

yonboshdek betakror jozibasiga mahliyo bo'lgan Shohnur sportchi bo'lishni juda orzu qilardi. Dadasi Shokir akaning har bir kurash maydonidagi harakatidan behad zavq olardi. Nihoyat, yosh kurashchini ilk bor 4-sinfda o'qib yurgan mahali tumanning Boyqozon qishlog'ida o'tgan bolalar musobaqasida orzusi ushaldi. 2009-yil yosh kurashchi uchun omadli keldi. U

Respublika va Osiyo chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi. Musobaqalarni sportchilar tilida kuchlilar maydoni deyishadi. Xuddi shu maydonda chiniqib, jahon chempionati sari ildam borayotgan yosh, umidli sportchimizga Yangi yil ham omadli va barokatli kelsin, deb niyat qildik.



Yilning eng yaxshi darvozaboni Sardor Sodiqov

Aziz o'quvchilar! Siz gazetamizda muntazam yoritiladigan sport sahifasini kuzatib boryapsizmi? Bu sahifani tayyorlashda tahririyatimizning bolajon, jonkuyar sportsevar jurnalisti Ma'mura Madrahimova yugurishdan tolmaydi. Kuni kecha sport sohasida Ma'mura opangiz uchun quvonchli kun bo'ldi. Bu sizlarni ham quvontirishi aniq. Sababi, xodimimizning farzandi sizning tengdoshingiz, «Paxtakor» bolalar futbol akademiyasining a'zosi, shahrimizdagi 248-maktabning 6-sinf o'quvchisi Sardorbek Sodiqov va uning jamoasi 2009-yil shahar birinchiligining g'olibi bo'lishdi.

## UMIDLARNING YORQIN DUNYOSI

Har yili yurtimizda an'anaga aylangan futbol mavsumi yakunida yil g'oliblari aniqlanadi. Chempionlar orasida yangi avlodning yorqin umidlari borligi bizni ham sevintirdi.

Bolalarimizning shaxdam qadam qo'yishlaridan ko'rinib turibdiki, kelajakda yurtimiz sportini jahonga ko'z-ko'z qilishda yoshlarimizning o'rni beqiyos.

JAMOA



**Sherali Jo'rayev «Umid nihollari» musobaqalarida toblangan bola. Ayni damda u O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining talabasi.**

## HAYAJONLAR HAYRATI

Sherali akangiz 2009-yilda milliy kurash bo'yicha Ukrainaning Alushta shahrida o'tgan jahon chempionatida terma jamoamiz a'zolari qatorida dunyo ahliga o'zbek polvonlari nimalarga qodir ekanligini namoyish etdi. U 90 kg. vazn toifasida chempionatning chempioniga aylandi.

– Men 2007-yil Mongoliyada o'tgan jahon chempionatida ham g'olib bo'lgandim. Alushtadagi

chempionatga yo'l olganimda, Ulan-Batordagi musobaqalar hayajoni ham birga edi. Chunki Mongoliyadagi musobaqalar qiyinroq o'tishi bilan men uchun katta tajriba maktabini o'tagandi. Bu safar esa birinchi uchrashuvdayoq eronlik raqibimdan ochkolar hisobida ustun keldim. So'ng, Moldova, Ukraina, finalda esa Qozog'iston vakilini «halol» yutish baxtiga erishdim.

**Sportchilar uchun har bir musobaqa tajriba maktabi hisoblanadi. Shohida opangiz ham Alushta shahridagi kuchlilar musobaqasida 52 kg. vazn toifasida qatnashib, kumush medal sohibasi bo'ldi.**

## SHOHIDA KURASHILAR MALIKASI

– Albatta, qizlar uchun kurashni qiyin sport turi deyishadi. Menga esa aksincha. Ukam Jonibek tumanimizdagi bolalar va o'smirlar kurash maktabiga qatnardi. Unga ergashib borganimdan hozir faxrlanaman. Ilhom aka Murodovning mashg'ulotlaridagi saboqlar bizda kurashga mehr uyg'otgan. Ayniqsa, shu yiliyoq «Mahallamiz pahlavonlari» turniridagi g'oliblikdan so'ng yana g'oliblik menga sport sohasida kengroq imkoniyatlar eshigini ochdi. Mohir

murabbiy Po'lat aka Omonqulovdan esa sambo sirlarini o'rgandim. Ayni paytda milliy kurash, dzyudo va sambo bo'yicha musobaqalarda qatnashaman.

– 2009-yil sarhisobiga ko'z yugurtirsam, yil davomidagi barcha musobaqalarda faqat g'oliblikka erishibman. 2010-yilda ham yutuqlarim bundan-da o'sishini xohlayman. Dzyudo bo'yicha yaxshi natijalarga erishish va 2011-yilda o'tadigan jahon chempionatida kuchli sakkizlikka kirib, Olimpiada yo'llanmasi sohibasi bo'lsam, deyman.







# «YANGI YIL» CHAYNVORDI



1. Yangi yil darakhisi.
2. Yer sharining tabiiy yo'ldoshi, samo jismiga nomdosh vaqt birligi.
3. Muchal hisobi bo'yicha boshlanayotgan yil nomi.
4. Yangi yilga Yevropa mamlakatlarida berilgan nom.
5. Yangi yilda bezatiladigan daraxt.
6. Hayotda qaror topgan udum, urf-odatlar majmui.
7. Tantanali, shodiyona kun.
8. Bayram sayillarda samoda gumburlab, turfa rang ko'rk berib, bolajonlarga quvonch baxsh etuvchi.
9. Chiroy, go'zallik.

10. Davomiyligiga ko'ra odatdagidan uzun yil.
11. Yangi yil ko'klamda kutib olinib, dehqonlar kuni sifatida nishonlanadigan respublikamizga chegaradosh mamlakat.
12. Aziz ne'mat, dasturxon ko'rki.
13. Tansiq milliy taom.
14. Qishga saqlanadigan ho'l meva.
15. Minora soat.
16. Bejamli bayram shirinligi.
17. Yakunlangan yilda 2200 yilligi nishonlangan shahar.
18. Erksevar xalqlar orzusi.
19. Dunyoda ommalashayotgan milliy sportimiz.
20. Kakao urug'i, shakar va rezavor mevalardan tayyorlanadigan bolajonlarning sevimli shirinligi.
21. Hafta kuni.
22. Qish fasliga xos ob-havo.
23. Minora soat jaranggi.
24. Dunyo vaqti deb qabul qilingan, London yaqinidan o'tuvchi meridian nomi.
25. Mo'g'ilistonda Qorbobo o'rniga Yangi yildan xabar beruvchi kash egasi.
26. Yangi yil bahoriy teng kunlikda nishonlanadigan sharqona ayyom.
27. Sharafiga mamlakatimizda iste'dod sohibalari sazovor bo'ladigan mukofot nomi berilgan atoqli shoir.
28. Kuzatilgan yilga YUNESKO tomonidan berilgan nom.

29. Musiqa asari turi.
30. Bayram sayillarida o'tkaziladigan, kayfiyatni ko'taruvchi so'z ustalari aytiluvi.
31. Chiston:  
*Eshksiz bir xona - ichida har on,  
Yuzlari pardali go'zallar pinhon.  
La'li lablar uchun munosib la'ldir,  
Ko'rgan deydi: «Qarang, ajoyib marjon!»*
32. Musiqa jo'rligida ijro etiladigan san'at asari.
33. Akrobatika, masxarabozlik, o'rgatilgan jonivorlardan tarkib topgan bolalarning sevimli tomoshasi.
34. Insonning yetuk, barkamol davri.
35. Kunning musaffo, kunchiqar payti.
36. Manzarali o'simlikdan tayyorlanadigan ichimlik.
37. Mamlakatimiz professional futbol ligasi chempionligiga erishgan jamoa.
38. O'zbek xalq raqs kuyi.
39. Vaqt karvoni nomini olgan, yilning oy, kunlari qayd etilgan davriy jadval.
40. Kunchiqar tomoning kitobiy atamasi.

### MUAMMONOMA

Avvalo quyida ta'riflari bayon etilgan beshta harfdan iborat kalit so'zlarni toping.

1. Yil fasli.
2. Janubiy Osiyoning tropik o'rmonlarida o'suvchi, shirin mevali, doim yashil daraxt.
3. Vatanimiz iste'dod sohiblari sazovor bo'ladigan mukofot.
4. Maqoldan: «Sihat tilasang kam ye,

... tilasang kam de».

5. Ovchilar qo'lga o'rgatadigan, chaqqon harakatlanuvchi yirtqich qush.
  6. O'tkir aql sohibasi, bilimdon ayol.
  7. Shashka o'yinidagi kuchli dona.
  8. Shamsiya yil hisobidagi sakkizinchi oy nomi.
  9. Maqoldan: «... so'zidan qaytmas, arslon izidan».
  10. Yosh bola, chaqaloq.
  11. Yangi yilni birinchi bo'lib kutib oladigan mamlakat poytaxti.
  12. Axborotlarni elektromagnit to'lqinlari orqali tarqatuvchi qurilma.
  13. Bilim va tarbiya beruvchi, mo'tabar zot.
  14. Vatanimizdagi axborot agentliklaridan biri.
  15. Sport sovrini.
  16. Qorboboning bolajonlarga keltirgani.
  17. Aziz, mo'tabar maskan.
  18. Diyorimizda qishlovchi patlari qoramtir parranda.
  19. Dunyo tomoni.
  20. Biror voqea-hodisa haqida ma'lumot.
  21. Xalq og'zaki ijodining kichkintoylar sevadigan janri.
  22. Daraxtzor maskan.
  23. Zargarlik buyumi, taqinchoq.
- Endi shakl atrofidagi xonalarda berilgan raqamlarni kalit so'zlari javoblaridagi birinchi harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Bunda siz azizlarga atalgan tabrik so'z va istaklarimizni bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



Fayzulla ABDULLAYEV



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Ma'mura MADRAHIMOVA,  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

### TAHIR HAY'ATI:

G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

### Manzillimiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 700129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

### «O'zbekiston»

nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 25957  
Buyurtma N: J 8684